








Nogironligi bor insonlarning davlat bojini to‘lashdagi imtiyozlari

Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor insonlarning **davlat bojini to‘lashdagi imtiyozlari** haqida bilib olasan.
	**Davlat boji** – bu davlat senga biror yo‘nalishda ko‘rsatgan xizmati uchun sen davlatga to‘laydigan pul.
	“Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunining 8-9-moddasiga ko‘ra sudlarda: • nogironligi bor insonlar tomonidan tashkil qilingan tashkilotlar • o‘quv - ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari **davlat boji** to‘lamaydi.

	**Masalan:** ● Sen sudga ajrashish uchun ariza bermoqchisan. ● Agar **nogironligi bor insonlar tashkil qilgan tashkilot** sening vakiling bo‘lib ajrim uchun sudga **ariza bersa** sen ajrim uchun **davlat bojini to‘lamaysan.**
	Sen o‘zing ajrashish uchun sudga ariza bersang, senda nogironlik bo‘lsa ham ajrim uchun davlat boji to‘laysan.
	“Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunning 11-moddasiga ko‘ra, nogironligi bor insonlarning: ● jamoat birlashmalari ● o‘quv - ishlab chiqarish korxonalari hamma turdagi **davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan..**

	“Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunning 15-moddasiga ko‘ra: • qariyalar • qariyalar uyida yashaydigan keksalarlar • nogironligi bor insonlar doimiy yoki vaqtincha yashash joyida ro‘yxatdan o‘tish uchun davlat boji to‘lamaydi.
	Senda birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo‘lsa • har xil konsert • tomoshalarni tashkil qilganing uchun davlat boji to‘lamaysan.
	**Masalan:** • Sen skripka chalishni bilasan. • Bog‘da yoki oromgohda skripka chalyapsan va buni boshqalar tomosha qildi. • Bunday tomosha qo‘yganing uchun davlatga pul to‘lamaysan.
	“Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunining 22^2-moddasiga ko‘ra: • Senda birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor bo‘lsa Davlat xizmatlari markazlari yoki

	my.gov.uz internet tizimi xizmatlari to‘lovlarini yarimini to‘laysan.
	**Masalan:** ● Sen my.gov.uz internet tizimidan elektron imzo olmoqchisan. ● Elektron imzo uchun xizmat narxi – 24 800 (yigirma to‘rt ming sakkiz yuz) so‘m. ● Bu holatda sen 12 400 (o‘n ikki ming to‘rt yuz) so‘m to‘laysan.
	“Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunining 23-moddasiga ko‘ra: ● Senda ikkinchi guruh nogironligi bo‘lsa, sen **ixtirolaringni** ro‘yxatdan o‘tkazish yoki patent olish uchun 90 foiz to‘lov to‘laysan.
	**Ixtiro** – bu hech kim yaratmagan yangi narsani sen yaratishing.

	**Masalan:** • Sen dunyoda yo‘q biror dorini o‘ylab topding. • Bu ixtiro bo‘ladi. • Sen yangi dori ixtiro qilgan bo‘lasan.
	Prezidentning 4366-sonli qaroriga ko‘ra: • bolalar kitoblari • yoki nogironligi bor insonlar uchun kitoblar ishlab chiqaradigan **nashriyotlar** davlat boji to‘lamaydi.
	**Nashriyot** – bu: • kitob • jurnal • gazetalar ishlab chiqaradigan joy.
	Nashriyotlar davlat boji to‘lamasligi uchun ularda **litsenziya** bo‘lishi kerak.

	**Litsenziya** – bu biron ish qilish uchun davlat ruxsat berganligini tasdiqlovchi hujjat.